

## YOSHLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH

**Xaydarov Ozodjon Yunusali o‘g‘li**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
*Ommaviy huquq fakulteti tyutori*  
[haydarovo.zodbek658@gmail.com](mailto:haydarovo.zodbek658@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bugungi kunda mamlakatimizda huquqbazarlik holatlarini ko‘plab uchratish mumkin. Yuzaga kelayotgan jinoyatchiliklar sonining ortib borishi va uning ishtirokchilarining aksariyat qismi 25-30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishi esa davlat va jamiyatning darhol hal etishi shart bo‘lgan muammolaridan biridir. Ushbu maqolada yoshlar orasida uchrayotgan huquqbazarliklar asoslari va ularni bartaraf etish masalalari xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** oilaviy g‘amxo‘rlik, sotsial muhitda oilaga e’tibor, tengdoshlar ta’siri, ijtimoiy imkoniyatlar, yoshlarni ish bilan ta’minalash, sifatli ta’lim, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish.

**Аннотации:** Сегодня в нашей стране много случаев нарушений. Рост количества преступлений и тот факт, что большинство их участников составляют молодые люди в возрасте до 25-30 лет, является одной из проблем государства и общества, которую необходимо решать незамедлительно. В данной статье говорится об основах преступлений среди молодежи и вопросах их ликвидации.

**Ключевые слова:** забота о семье, ориентация на семью в социальной среде, влияние сверстников, социальные возможности, занятость молодежи, качественное образование, пропаганда здорового образа жизни.

**Annotation:** Today, there are many cases of violations in our country. The increase in the number of crimes and the fact that the majority of their participants are young people under the age of 25-30 is one of the problems of the state and society that must be solved immediately. This article talks about the basics of crimes among young people and issues of their elimination.

**Keywords:** family care, focus on family in social environment, peer influence, social opportunities, youth employment, quality education, promotion of healthy lifestyle.

Yurtimizda oxirgi yillarda yoshlar ishtirokida jinoyatchilikning ortib borayotgani rasmiy doiralarda va huquq-tartibot organlari hisobotlarida ham qayd etilmoqda. Buni ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinayotgan statistika ko‘rsatkichlari orqali ham bilib olish mumkin. Birgina o‘tgan 2021-yilning 10 oyligi bo‘yicha e’lon qilingan huquqbazarlik ko‘rsatkichi 45 mingtani tashkil etib undan 37-38 foizi

yoshlar o'rtasidagi huquqbazarlikka to‘g‘ri kelmoqda<sup>1</sup>. Ushbu son avvalgi yillarga qaraganda tez o‘sib borayotganligi bilan havotirlidir.

Yuzaga kelayotgan jinoyatchiliklarning asoslari, ularni yuzaga keltiruvchi omillar turli xil bo‘lishi mumkin. Quyida esa ularning kelib chiqish sabablari bilan emas, ularni oldini olish masalalariga e’tibor qaratish zarurdir.

**G‘amxo‘r oila va kattalar e’tibori:** Oila yoshlarga mehr, g‘amxo‘rlik va qo‘llab-quvvatlashning muhim manbaidir. Ular bolalarga shaxsiy kuchli tomonlarini va munosabatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Afsuski, ayrim oilalar yoshlar tarbiyasida yordam manbai bo‘la olmayotganini ko‘plab uchratish mumkin. Bunday hollarda oiladan tashqarida katta yoshli insonlar yoshlar bilan mustahkam munosabatlar o‘rnatishi muhimdir. Bu o‘qituvchi, murabbiy yoki qo’shni bo‘lishi mumkin. Oila a’zolari yoki boshqalarning ijobiliy qo‘llab-quvvatlashi rivojlanib borayotgan yoshlarga o‘zini o‘zi qadrlashi va o‘zini xavfsiz his qilishiga yordam beradi. Shuningdek, u muhim muammolarni hal qilish ko’nikmalarini rivojlantirishga hissa qo’shishi ham mumkin.

**Jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash:** Jamiyat oilalarni qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirishi kerak. Ko‘pgina oilalar o‘z farzandlariga tegishli yordam yoki imkoniyatlarni taqdim etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular kambag‘allik, jismoniy izolyatsiya, oilaviy kelishmovchiliklar, past savodxonlik hamda ijtimoiy xizmatlar tizimidan cheklanganlikdan aziyat chekishadi. Ayniqsa qishloq joylarda ushbu imkoniyatlardan foydalanish cheklangan bo‘lishi mumkin. Jamiyat ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ota-onalarga sog‘lom oila muhitini shakllantirish va farzand tarbiyasi borasida darsliklar, oilalarni ijtimoiy himoya qilish dasturlari, erta ta’lim borasida imtiyozli bolalar bog’chalari va maktablari kabi maxsus xizmatlardan foydalanishni tashkil qilish orqali yuqorida muammolarni bartaraf etishlar mumkin.

Jamiyat qashshoqlik kabi muayyan vaziyatlarni milliy va hatto global darajada hal qilishi kerak. Ushbu vaziyatda, mahalliy hokimiyat organlarini va jamoat tashkilotlarining o‘rni beqiyos. Ular yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning naqadar muhim ekanligini his qilishlari va iloji bo‘lsa, ularining hayot imkoniyatlarini yaxshilash, ayniqsa kambag‘allikda yashovchi yoshlar uchun imkoniyatlar yaratish choralar ko‘rishi zarur.

**Tengdoshlarning ijobiliy qo‘llab-quvvatlashi:** Yoshlar tengdoshlar guruhiga moslashishni va uning bir qismi bo‘lishni xohlashadi. Bu ularga biror narsaning bir bo‘lagi ekanliklarini his qilishlariga, o‘zini o‘zi qadrlash va o‘zini o‘zi hurmat qilish tuyg‘usiga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Ammo tengdoshlarning kuchli ta’siri

<sup>1</sup> <https://kun.uz/uz/news/2021/11/03/ozbekistonda-yoshlar-jinoyatchiligi-kolami-ortyapti-sabablar-haqida-tahliliy-suhbat>

ijobiy yoki salbiy taraflama ham bo'lishi mumkin. Ba'zi yoshlar o'z tengdoshlariga turli sabablarga ko'ra, sog'lom o'sishi va rivojlanishi uchun yaxshi bo'limgan narsalarni taklif qilishi mumkin. Misol uchun alkogolli ichimliklar yoki tamaki mahsulotlari chekishni targ'ib qilish yoki boshqa yo'llar orqali bo'lishi mumkin. Yaxshiyamki, yoshlarni qo'llab-quvvatlaydigan ijobiy hislatlar va yutuqlarga ega tengdoshlariga jalb qilishning ko'plab usullari mavjud. Bular tengdoshlarning kreativligi, ijtimoiy klublar, sport jamoalari, o'smirlarning yutuqlari va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin. Yoshlarning muvaffaqiyatini o'zgalar e'tiboriga havola qilish va ularning muvaffaqiyat hikoyalarini boshqa yoshlar, oilalar, maktablar va jamoalar bilan baham ko'rish orqali qolgan yoshlarning ham ularga ergashishlariga yo'l ochishi mumkin.

**Davlat organlarining ishtiroki:** Yoshlar o'zlarini jamiyatning bir qismi sifatida his qilishni xohlashadi. Buning uchun davlatning mas'ul organlari yoshlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari va ularning ehtiyojlariga javob berishlari kerak. Yoshlar markazlari, kutubxonalar, ko'ngilochar bog'lar, sport arenalar, basseynlar va hokazolar - bu hokimiyat organlari va jamoat birlashmalarining yoshlarga jamiyatda ijobiy muhit yaratishga yordam berishning bir necha yo'llaridan biri hisoblanadi.

**Dam olish va ko'ngillilar imkoniyatlari:** Ba'zi yoshlar zerikishdan va biror ijobiy ish yo'qligi sababli jinoiy xatti-harakatlar ishtirokchisiga aylanib qolishi mumkin. Sport, musiqa, to'garaklar, teatr va yoshlar markazlari kabi dam olish va hordiq chiqarish tadbirdari nafaqat yoshlarni band qiladi, balki ular yoshlarga boy ko'nikma, ijobiy ijtimoiy muloqot va mazmunli faoliyat bilan ta'minlaydi. Ular jamoaviy ishslash, hamkorlik, nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish va hokazo kabi tushunchalarni yoshlar ongida shakllantirishi mumkin.

Ko'ngillilar faoliyati ham yoshlarga ko'plab qimmatli ko'nikmalarni o'rgatishi mumkin. Maktabda yaxshi o'qimaydigan yoshlar boshqa sohada, masalan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga jalb qilish, mahallalarda yoki ta'lim muassasalarida tashkil qilinadigan ommaviy hashar ishlariga jalb qilish yoki yolg'iz keksalar holidan xabar olish ishlariga jalb qilish orqali ularda o'zini va o'zgalarni hurmat qilish va o'zlariga nisbatan ishonchni oshirishi mumkin. Shuningdek, hamma oilalar ham o'z farzandlariga dam olish va hordiq chiqarishga imkoniyat yaratib bera olmaydi. Hokimiyat organlari bir qator arzon va qulay dam olish, hordiq chiqarish va yoshlar uchun ko'ngillilar dasturlarini qo'llab-quvvatlashlari kerak.

**Ta'limni qo'llab-quvvatlash:** Maktablar va ota-onalar yoshlarga o'z kelajagini ongli ravishda tanlashda yordam berishda rol o'ynashi mumkin. Ta'lim yoshlar uchun o'z vaqtida va albatta mazmunli bo'lishi kerak. Yoshlar o'z ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim va ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishda yordamga muhtoj. Muqobil

sinflar, tengdoshlar uchun qo'shimcha va individual ehtiyojlarni qo'llab-quvvatlaydigan ta'lif dasturlari ayniqsa ishsizlik xavfi ostida bo'lgan yoshlarga ish topish va uni saqlab qolish uchun muhim ko'nikmalarga ega bo'lishda yordam berishning samarali usullaridir.

**Salomatlik, xavfsizlik va farovonlik:** Xavfsiz, barqaror va sog'lom muhit yoshlarni sog'lom turmush tarziga undaydi. Yoshlar o'zlarining hissiy va jismoniy salomatligi bilan bog'liq muammolarini tushunishni va ularning farovonligini yaxshilashga urinishlarida qo'llab-quvvatlanishni xohlashadi. Yoshlar o'z muammolarini yengish uchun ba'zida asabiylik, chalkashlik, umidsizlik yoki tushkunlikni his qilish odatiy hol ekanligiga ishonch hosil qilishlari kerak. Ular bilishlari kerakki, bu his-tuyg'ular tabiiydir va nima bo'lishidan qat'i nazar, ularni qo'llab-quvvatlaydigan insonlar bor. Liderlik, muloqot qilish, nizolarni muzokara yo'li bilan hal qilish va mustaqil hayot pastu-balandiga tayyor bo'lishlik kabi ko'nikmalarni rivojlantirish orqali yoshlari ijobjiy tanlov qilish uchun yaxshi tayyorlanib borishadi. Shuningdek, sog'lom tanlovlardan giyohvandlik va spirtli ichimliklar, zo'ravonlik, suiiste'mollikning oldini olish dasturlarini qo'llab-quvvatlash orqali ham yoshlarni huquqbazarliklar xavfidan yiroq turishlarini ta'minlash mumkin.

**Ijobiy media xabarlarning yoshlari onggiga ta'siri:** Ommaviy axborot vositalari ham yoshlari madaniyatini o'stirishi yoki uni ma'naviy qashshoqlashuviga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, ommaviy axborot vositalari yoshlarni sovuqqon, zo'ravon, befarq, uddaburon, aqqli, uzoqni ko'zlab ish yurituvchi kabi va hokazo o'ziga xos ijobjiy va salbiy ko'rinishga ega fazilatlar bilan tarbiyalashi mumkin. Yoshlar oilada o'rgatilgan milliy qadriyatlar va ommaviy axborot vositalari, musiqa, videolar va jurnallarda keltirilgan insonning ijobjiy yoki salbiy hislatlari jozibasini taqqoslashi va bu orqali ular o'rtafigi farqlarni tushunib yetishlari, ularni amaliyotda qay birini qo'llash yoki qo'llamaslik ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shuni ta'kidlash mumkinki, hozirgi kunda yoshlari o'rtafiga huquqbazarliklarni oldini olishda faqatgina oilaviy tarbiya yoki sifatli ta'lif berish orqali erishib bo'lmaydi. Ushbu sohada yutuqqa erishish uchun butun bir jamiyat, davlat bir kuch bo'lib yoshlarga ta'lif, tarbiya, kasb-hunar va boshqa ijtimoiy sohalarda kerakli imkoniyatlar eshigini ochishi zarurdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- <https://kun.uz/uz/news/2021/11/03/ozbekistonda-yoshlar-jinoyatchiligi-kolami-ortyapti-sabablar-haqida-tahliliy-suhbat>.
- <https://lex.uz/uz/>
- <https://edu.mininnovation.uz/>